



FARG'ONA VODIYSIDA ILK MATBAACHILIK AN'ANALARI: MUHAMMAD AZIM HOJI MARG'ILONIY TASHABBUSI

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'ZMU tarix fakulteti

2-bosqich magistranti Nurqulova Oyim Shoyimardon qizi

oyimgulnurqulova@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda, xususan Xiva xonligi va Farg'ona vodiysida toshbosma matbaachilikning shakllanishi va rivojlanish tarixi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Xivadagi "Xurshid" toshbosma matbaasining tashkil etilishi, uning faoliyati, nashr etilgan asarlar va ushbu jarayonda ishtirok etgan shaxslar Muhammad Rahimxon II (Feruz), Otajon Abdalov, Komil Xorazmiy kabi namoyondalarning o'rniga qaratilgan. Shuningdek, Farg'ona vodiysida milliy matbaachilikka asos solgan Muhammad Azim hoji Marg'iloniyning faoliyati, uning litografiya san'atini o'zlashtirishi va Marg'ilonda birinchi toshbosma ustaxonasini tashkil etish jarayonlari yoritib berilgan. Maqolada milliy kitobat va nashriyotchilik tarixida toshbosmaning o'rni va ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *toshbosma matbaa, litografiya, Xurshid matbaasi, Farg'ona vodiysi, Xiva xonligi, Muhammad Azim hoji Marg'iloniy, Otajon Abdalov, Komil Xorazmiy, milliy kitobat.*

АННОТАЦИЯ: *В статье проводится научный анализ становления и развития литографского книгопечатания в Центральной Азии, в частности в Хивинском ханстве и Ферганской долине. Особое внимание уделяется деятельности придворной литографской типографии «Хуршид» в Хиве, ее организационной структуре, издательской практике и роли таких исторических личностей, как Мухаммад Рахимхан II (Феруз), Отожон Абдалов и Комил Хорезмий. Также подробно рассматривается вклад*



Мухаммада Азима хаджи Маргилани, основателя первой литографской мастерской в Ферганской долине, его обучение типографскому искусству и попытки внедрения книгопечатания в Маргилане. В статье раскрывается значение литографии в истории национального книгоиздания и культурного развития региона.

Ключевые слова: *литография, книгопечатание, типография «Хуршид», Ферганская долина, Хивинское ханство, Мухаммад Азим хаджи Маргилани, Отожон Абдалов, Комил Хорезмий, история книги.*

ABSTRACT: *This article provides a scholarly analysis of the emergence and development of lithographic printing in Central Asia, particularly in the Khiva Khanate and the Fergana Valley. Special attention is paid to the establishment and operation of the “Khurshid” lithographic printing house in Khiva, its publishing activities, and the contributions of key historical figures such as Muhammad Rahim Khan II (Feruz), Otajon Abdalov, and Komil Khorezmi. The study also examines the role of Muhammad Azim Haji Margilani, who founded the first lithographic workshop in the Fergana Valley, highlighting his efforts to master printing techniques and introduce lithography in Margilan. The article emphasizes the significance of lithographic printing in the history of national book culture and publishing traditions of the region.*

Keywords: *lithographic printing, lithography, Khurshid printing house, Fergana Valley, Khiva Khanate, Muhammad Azim Haji Margilani, Otajon Abdalov, Komil Khorezmi, book history.*

Kirish. *Farg‘ona vodiysi matbaachiligi haqida so‘z yuritishdan avval, Markaziy Osiyodagi ilk toshbosma matbaalardan biri bo‘lgan “Xurshid” nomli nashriyot haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish lozim. Turkistondagi birinchi toshbosma matbaa litografiya XIX asrning 70-yillari boshlarida Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahimxon II saroyi qoshida tashkil etilgan edi. Bu matbaa ilm-fan va san’at homiysi, “Feruz” taxallusi bilan ijod qilgan shoir hamda hukmdor Muhammad Rahimxon II tashabbusi bilan tashkil topgan. Ayrim manbalarga ko‘ra, litografiya uskunalari xon*



tomonidan Shveytsariyaning Jeneva shahridan olib kelingan, boshqa ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa, bu uskuna Erondan keltirilgan.

Turkman kitobshunosi O. Yazberdievning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, Xiva toshbosma matbaasining ilk nashri 1874 yilda amalga oshirilgan. Bu o'zbek tilida nashr etilgan birinchi toshbosma kitob bo'lib, xorazmlik shoir va tarixchi Shermuhammad Munis (1778–1829) qalamiga mansub “Devon ul-Munis” (Munis devoni) asari edi. Shuningdek, Shermuhammad Munis Xorazm tarixiga oid mashhur solnoma “Firdavs ul-iqbol” (Jannat bog'i) muallifi hisoblanadi¹. 1812-yilgacha yozilgan bu solnoma keyinchalik uning jiyani va shogirdi Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) tomonidan davom ettirilgan va yakuniga yetkazilgan.

Asosiy qism. Xorazmda toshbosma yo'li bilan chop etilgan nashrlar ichida davriy jihatdan ikkinchi o'rinda Abdunosir Farog'iyning fors va arab tillarida yozilgan bolalar darsligi “Nisob us-sibyon” (Bolalar nasibasi) turadi. Ushbu asar 1876-yilda nashr etilgan. Kitobshunos O. Yazberdiev o'z tadqiqotida quyidagicha yozadi: “Xivada saroy qoshida bosmaxona mavjudligi haqida xonlik sarhadidan tashqarida uzoq vaqtgacha hech kim xabardor bo'lmagan edi.”

1908 yilda Toshkent, Buxoro va Xiva xonliklariga tashrif buyurgan rus sharqshunosi, turkolog A.N. Samoylovich o'z esdaliklarida Xiva toshbosma matbaasi haqida shunday yozadi: “Hatto Toshkentda, hech bo'lmaganda, general-gubernator kantselyariyasida bu haqda hech narsa ma'lum emasdi, bu matbaa haqida hech kim xabardor emas edi.” Toshbosma kitoblar tarixi bilan birinchi bo'lib shug'ullangan va 1912 yilda Turkiston Xalq kutubxonasi tasarrufida bo'lgan toshbosma kitoblarning qo'lyozma katalogini tuzib chiqqan mashhur sharqshunos A.A. Semyonov Xiva bosmaxonasida chop etilgan kitoblarning favqulodda nodirligiga alohida urg'u bergan edi. A.A. Semyonovning ushbu e'tirozli ta'kidlovi mutlaqo haqqoniy, chunki saroy toshbosma matbaasi tijorat muassasasi emas edi. Unda bosmadan chiqarilgan kitoblar adadi ming nusxadan ham oshmas edi. Shu bois,

¹ Язбердиев А. К вопросу о начальном периоде книгоиздательской деятельности Хивинской литографии (1874–1880) // Известия АН Туркменской ССР. Серия общественнѣх наук. 1971, №4 С. 58.



Xiva toshbosma matbaasida chop etilgan kitoblar bosmadan chiqqan zahoti nodir asarlar maqomiga ega bo'lgan.

Xo'sh, xalq orasida "bosma" deb atalgan matbaa aslida qanday bo'lgan?

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 1908 yilda Xivaga tashrif buyurgan rus sharqshunosi A.N. Samoylovich mazkur toshbosma matbaasi haqida quyidagilarni qayd etadi: "Xiva xonligida toshbosma matbaa mavjudligi yoki mavjud bo'lganligi haqida men xivalik (xorazmlik Shermuhammad) Munis devonining 1874-yildagi Xiva nashridan (Armin Vamberi tanlab olgan iqtiboslar orqali) tanishib chiqqanimdan beri bilardim. Faqat Xivaga yetib kelganimdan keyingina bitta-yu bitta Xiva toshbosma matbaasi 1870-yillardan buyon mavjud bo'lib kelayotganini va bu matbaa xonga tegishli ekanligini bilib oldim."

A.N. Samoylovichning kuzatishicha, toshbosma matbaa doimiy inshootga ega bo'lmagan, chetdan buyurtmalar qabul qilmagan, ba'zan tanaffuslar bilan faoliyat yuritgan. Unda nashr etilgan kitoblar sotuvga chiqarilmas, balki xon tomonidan sovg'a tariqasida tarqatilgan.

Feruz (ya'ni Muhammad Rahimxon II) 1900-yilda bu toshbosmani Ko'hna Arkdan "Qibla Tozabog'"ga ko'chirgan. 1908-yil bahorida bu toshbosma matbaa Tozabog' bog'ining markaziy chordarasida, chordaraning quyoshli (kungay) tomonida faoliyat yuritgan. Nashrga tayyorlangan asar avval xattotga berilgan bo'lib, u toshbosma siyohi bilan asarni nusxa ko'chiradigan maxsus xonaga topshirgan. Boshqa bir xonada esa bu nusxa sahifa-ma-sahifa toshga ko'chirilgan, va undan bosma izlar olinardi. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan tosh o'zida to'rt sahifani sig'dira olsa, avvalgi toshlarga kamroq sahifa joylashtirilgan bo'lgan. Bosma dastgohi qo'lda harakatga keltiriladi, uning oldida ikki ishchi turadi: birisi charxni aylantirib turadi, boshqasi esa sahifalarni almashtirib turadi. Uchinchi bir ishchi esa alohida stolda bo'yoqni valikka aylantirib surkab chiqadi. Ish borishi ustidan usta ko'z-quloq bo'lib turadi².

²Самойлович А.Н. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня. 50-варақ. Известия АН Туркменской ССР Серия обхес. Наук. 1981, №1, –Б 82. О.Язбердиев томонидан эълон қилинган.



Xiva saroy toshbosma matbaasiga 1874-yilda asos solingan, va ayrim chop etilgan kitoblarda bu matbaa “Xurshid” nomi ostida nashriyot belgisi (markasi) bilan ko‘rsatilgan. Xiva “Xurshid” toshbosma matbaasining birinchi ustasi Otajon Abdalov bo‘lgan. U litografiya (toshbosma) tashkil topganining taxminan ellik yilligi munosabati bilan, 1924 yili aynan shu sanani tilga olgan edi. Xorazm Xalq Sotsialistik Respublikasi ilk gazetalaridan biri bo‘lgan “Inqilob quyoshi” gazetasi sahifasida “bosmachi” Otajon Abdalovning tarjimai holiga oid ba’zi ma’lumotlar berilgan. Ushbu maqolaga xivalik Umar Qurbonov tomonidan chizilgan birinchi o‘zbek “bosmachi” sining portreti ham ilova qilingan³. Otajon Abdalov 1856 yilda tavallud topgan. Boshlang‘ich ta’limni, o‘sha davrdagi aksariyat bolalar kabi, yashash manzilidagi mahalliy domla qo‘lida olgan. 1873 yilda u Petro-Aleksandrovska (hozirgi To‘rtko‘l shahri)dagi rus-tuzem maktabida tahsil olgan.

Toshbosma kitob matbaachiligi san’atini Otajon Abdalovga Xiva xoni tomonidan Erondan taklif etilgan usta Ibrohim Sulton o‘rgatgan. Feruzxon Petro-Aleksandrovskdagi rus-tuzem maktabini bitirgan Otajon Abdalovni Pirmaxosdagi “Koshilo” mahallasida ishlayotgan paytida aniqlab, uni saroy toshbosma matbaasiga shogird sifatida bergan.

Otajon Abdalov saroy toshbosma matbaasidagi ilk faoliyati davomida, ya’ni 1874–1878 yillarda, shogirdlik qilgan. Shundan so‘ng u mustaqil faoliyat yurita boshlagan. Ish faoliyati avj olgan davrda ustoz va shogird matbaada turli hujjatlarni bosmadan chiqarishgan, 1876 yilda esa ilk bor Forog‘iyning “Nisob us-sibiyon” nomli asarini chop etishga muvaffaq bo‘lishgan. Shartnoma muddati tugab, Ibrohim Sulton Eronga ketgach, butun ish Otajonga qoldi. U o‘ziga Muhammad Yoqub, Xudirgan xarrot, Xudoybergan muhrkon, Ismoil devonlarni shogird qilib oldi va matbaaxona faoliyati yanada qizg‘in tus oldi.

Natijada, 1880 yilda Navoiyning “Xamsa”, 1882 yilda esa “Chor devon”, Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin”, Komilning “Devoni Komil” kabi asarlari toshbosmada chop etildi. Shuningdek, Feruzxon saroyidagi shoirlarning devonlari

³Otajon Abdalov portreti berilgan gazeta sahifasi fotosurati professor G.N. Chabrov tomonidan Sotsialisticheskii Uzbekistan jurnalida e’lon qilingan. 1956, №2, – B. 19.



ham Otajon Abdalov tomonidan nashr qilingan. E'tiborlisi shundaki, Feruzning yozgan asarlari bir necha jildli devon holiga kelgan bo'lsa-da, u o'z matbaasida asarlari chop etilishiga shoshilmadi. Farobiy, Navoiy, Ogahiy asarlari toshbosmada nashr qilinganidan so'ng, 1897 yildagina u o'z g'azallarini kitob holida chop ettirdi. 1910 yilda, ma'rifatparvar Xiva xoni Feruz vafot etgach, matbaachilik ishlari izdan chiqdi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Xivadagi "Xurshid" toshbosma matbaasida oxirgi kitob aynan 1910 yilda nashr etilgan. Shundan keyingi yillarga oid Xiva toshbosma nashrlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida ham, Qo'lyozmalar instituti to'plamlarida ham uchramaydi.

Bundan tashqari, 1910 yil 10 oktyabrdan 1911 yil 26 fevralgacha bo'lgan davrda Turkiston o'lkasida nashr etilgan adabiyotlarning bibliografik tavsifnomalarida ham Xiva nashrlari tilga olinmagan⁴. Shunday qilib, Xivadagi saroy toshbosma matbaasining faoliyati 1874-1910 yillar davomida olib borilgan deb qat'iy xulosa chiqarish mumkin. Muhammad Rahimxon Ildan keyin taxtga o'tirgan Asfandiyorxon Otajon Abdalovni isyankor shoir Avaz O'tar g'azallarini toshbosmada chop etgani uchun zindonga tashlagan. Garchi u ba'zi yaxshilarning yordami bilan qatldan omon qolib, keyinchalik ozodlikka chiqsa-da, bu orada matbaaxona faoliyati to'xtab qolgan edi.

Taraqqiyparvar Otajonning jadidlar safiga qo'shilganini eshitgan Said Abdullaxon uni 1919 yilda yana qamoqqa oldirgan. 1920 yil hibsdan chiqqan oltmish to'rt yoshli Otajon bosma keksaligiga qaramay, shijoat bilan ishga kirishdi. Matbaaxonada ishlar jonlanib, endi nafaqat kitoblar, 1920 yilning 8 martidan Inqilob quyoshi gazetasi, hatto, Xorazm respublikasining shoyi qog'oz pullari ham bosib chiqarildi. 1920-30 yillarda Xivadagi matbaaxonada Xorazmning o'ngga yaqin, Qoraqalpog'istonning esa oltita gazeta va jurnallari chop qilingan. 1929 yili Otajon Abdalov zamonaviy poligrafiya sirlarini o'rganish, tajriba orttirish maqsadida Toshkent va Moskvaga borib, ish jarayonini o'zlashtirib qaytdi. Vaholanki, bu paytda u 73 yoshga kirgan edi. O'zbekiston rahbariyati uning matbaachilikka

⁴Зимин Л. Библиография F F Средняя Азия. Ежемесячное литературно-историческое издание. – Т.: Кн. ИИ. 1911, – Б. 144..



qo'shgan hissasi va fidoyiligini e'tiborga olib, "Mehnat qahramoni" unvoni bilan taqdirladi.

Otajon Abdalov hayotining oltmish yilini matbaachilikka bag'ishlab, Nizomiddin Shamsiddinov, Sodiq Halimov, Durdi Panoyev, Ollabergan Rahimov, Ota Miskinov, Boyjon Otajonov, Madrahim Saydaliyev, Qodir Abdullayev kabi shogirdlarni yetishtirgan. U, shuningdek, Ollabergan, Jabborbergan va Rahmonqul ismli uch farzandni voyaga yetkazdi.

Afsuski, "katta terror" avj olgan 1938 yil 10 fevralda Otajon Abdalov ham otuvga hukm qilindi. Bu vaqtda u 82 yoshga kirgan keksaygan inson edi. Shoir, xattot, muharrir va bastakor Muhammad Rasul Mirzaboshi (taxallusi Komil) litografiyani tashkil etishda muhim rol o'ynagan. Komil Xorazmiy (asl ismi Pahlaxon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o'g'li, 1825-1899) o'zbek shoiri, xattot, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobi bo'lgan. U 25-30 yoshlarida shoir sifatida tanilgan. Ogahiy uning nomini "Gulshani davlat" nomli asarida tilga olgan.

Litografik kitob nashrlarini tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, Xiva xoni Muhammad Rahim II ko'plab kitoblarning nashrga tayyorlanishi va bosmadan chiqarilishini, shuningdek, litografiya nashirlik faoliyatining umumiy nazoratini aynan Komil Xorazmiyga ishonib topshirgan edi⁵. Komil Xorazmiy nashr etish uchun qo'lyozmalarni tanlab olar, ba'zan ularni o'zi qayta ko'chirar, matnni tahrir qilar va xatolarini tuzatar, nashrlarga Komil Xorazmiy so'zboshi yozar, kitoblar bosmadan chiqarilishi, taboqlash va muqovalash ishlarini nazorat qilar edi. Chor Rossiyasi bilan Xiva xonligi o'rtasida imzolangan sulh bitimi Gandimiyon shartnomasi aynan Komil Xorazmiyning qo'li bilan yozilgan edi.

Komil Xorazmiyning zamondoshi u haqda shunday yozadi: "Muhammad Rasul Mirzaboshi musiqashunoslikda ham mashhur edi. Ta'liq va nasx xatlarini nihoyatda chiroyli yozar edi. Muhammad Rahimxon va Isfandiyorxonlarning amri bilan bir necha kitoblarni ko'chirgan. Taqriban besh yuz kishiga xat ta'lim bergan"⁶.

⁵ Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011, – B. 384.

⁶ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 1999 yil. – B. 519.



Komil Xorazmiy Sharq mumtoz musiqasi, ayniqsa maqomchilik an'analarini rivojlantirishga homiylik qilgan. U o'zbek kuylarini yozib olish uchun "Tanbur chizig'i" deb atalgan nota tizimini joriy etgan⁷. 1880 yilda Komil Xorazmiyning uch sahifalik so'zboshi bilan Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'ja Xolisning "Devoni Xolis" to'plami nashr etildi. To'plamga shoir, xattot va yirik tarjimonning g'azallari, ruboiylari hamda muhammaslari kiritilgan edi.

Komil Xorazmiy o'zbek milliy kitobat tarixida birinchi bo'lib ikki muhim noshirlik ishini amalga oshirdi. 1878 yilda Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini nashrga tayyorlash va bosmadan chiqarish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Shu yili "Xamsa"ning faqat birinchi doston "Hayrat ul-abror" nashr qilindi. Keyingi 1879 yilda esa "Xamsa"ning to'liq nashri chop etildi. Shuningdek, 1879 yilda Komil Xorazmiy muharrirligida va uning mufassal so'zboshi bilan Alisher Navoiyning xalq orasida "Chahor devon" nomi bilan mashhur "Xazoyin ul-ma'niy" nashri shu turdagi noshirchilik ishlari orasida birinchisi va so'nggisi ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xronologik jihatdan Farg'ona vodiysida milliy kitoblar bosib chiqargan birinchi toshbosma matbaa ustaxonasi Marg'ilon shahrida 1884 yilda Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan ochilgan edi. Muhammad Azim savodxon shaharliklar, o'rtahol odamlar ichidan yetishib chiqqan, o'z davri va davrasiga nisbatan ilg'or qarashlarga ega bo'lgan bir inson edi.

O'zbek yozuvchisi va 1930-yilgi nashriyot xodimi bo'lgan Husayn Shamsning O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan 1936-yilda chop etilgan "Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi" nomli kitobida noshir Muhammad Azim tilga olingan yagona manba sifatida qayd etiladi. Muallif shunday yozadi: Haj safaridan qaytib kelayotgan marg'ilonlik Muhammad Azim hoji Hindistonda to'xtaydi va litografiya ustaxonalaridan birida bosma kitob matbaachiligi san'atini o'rganadi. 1867-yilda Bombay shahrida litografiya uchun jihozlar sotib oladi. So'ng Turkistonga qaytib kelib, toshbosma dastgohlarini Qo'qon shahrida o'rnatadi. Bu yerda u hukumatning ruxsatisiz o'g'illari bilan birga maxfiy ravishda ishlaydi. Bir

⁷ Мулла Бекжон Раҳмон ўғли ва Муҳаммад Юсуф девонзода. Хоразм муסיқий тарихчаси. Х., Наркомпрос нашриёти, 1925. – Б. 421 б.



qancha vaqt o'tgach, litografiya butunlay yonib ketadi. Shaharning rus ma'muriyatiga litografiya mavjudligi ma'lum bo'lib qoladi va qolgan barcha asbob-uskunalar musodara qilinadi. Shu tariqa Muhammad Azimning matbaachilik faoliyati yakunlanadi⁸.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, jumladan Xiva xonligi va Farg'ona vodiysida toshbosma matbaachilikning shakllanishi milliy kitobat va ma'rifat taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Xivadagi "Xurshid" toshbosma matbaasi faoliyati natijasida o'zbek adabiyotining mumtoz namunalari keng jamoatchilikka yetib bordi hamda kitob nusxalarining saqlanib qolishi ta'minlandi. Otajon Abdalov va Komil Xorazmiy kabi fidoyi matbaachilarning sa'y-harakatlari tufayli toshbosma nashriyoti ilmiy va adabiy merosni ommalashtirish vositasiga aylandi.

Shuningdek, Farg'ona vodiysida Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan milliy matbaachilikka asos solinishi hududda bosma kitoblar tarqalishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Uning ilg'or qarashlari va tashabbuslari mahalliy nashriyotchilik an'alarining rivojiga turtki bo'ldi. Umuman olganda, mazkur jarayonlar o'zbek milliy matbaachiligi tarixi, ma'naviy-ma'rifiy hayot va madaniy merosni asrashda alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yazberdiyev O. Xorazm kitobat va matbaachilik tarixi. Ashxobod, 1985.
2. Samoylovich A.N. Vospominaniya o Xive i Sredney Azii. Sankt-Peterburg, 1910.
3. Semyonov A.A. Katalog litografskix izdaniy Turkestana. Tashkent, 1912.
4. Shams Husayn. Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi. Toshkent: O'zdamnashr, 1936.
5. Ogahiy M.R. Firdavs ul-iqbol. Qo'lyozma manbalar asosida.
6. Munis Sh. Devon ul-Munis. Xiva, 1874 (toshbosma nusxa).
7. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi materiallari.

⁸Шамс Х. Матбаачилик ҳам унинг қисқача тарихи. – Тошкент-Самарқанд, Ўздавнашр, 1936. 45 б.